

Ustoz ziyoratida

Ko'p yillar ilmiy tadqiqot institutlarida mas'ul vazifalarda ishlagan fidoyi olim Kuchkar Xannazarov tabarruk yoshda. Ikkinchi jahon urushida vatan himoyasiga otlangan, front ortida ham jonbozlik namunalarini ko'rsatgan fidoyi olim ular. 14 yanvar - "Vatan himoyachilari kuni" munosabati bilan Mirzo Ulug'bek tumani "Mustaqillik" mahallasida yashovchi, ikkinchi jahon urushi qatnashchisi 97 yoshli Xannazarov Kuchkar Xannazarovichning "Oloy" mavzesi 15 uy 18 xonadoniga tashrif uyushtirilib, institut rahbariyati nomidan bayram bilan tabriklandi. Tashrifimizdan ularning qalbi tog'dek ko'tarildi. Savob ishni har kim, har kuni qilish zarurligini yana bir bor his etdik.



Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov